INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RTASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Mamatkulova Zarnigor Sadriddinovna
Oriental Universiteti, tarix yo'nalishi 1-kurs magistri
e-mail: mamatkulovazarnigor8@gmail.com

Annotasiya: *Mustaqillik yillarida O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosini va savdo-iqtisodiy aloqalarini tadqiq etishda halqaro strategik hamkorlikning yo'lga qo'yilishi va uni o'rganish yangi dolzarb bosqichga ko'tarildi. Shu sabab tanlangan ushbu maqolada ham O'zbekiston – Turkiya o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarining shakllanishi, takomillashishi va so'nggi yillarda olib borilayotgan aloqalarni mustahkamlash yo'lida "Keng qamrovli strategik sheriklik"ning yangi istiqbollari tahlil qilinadi.*

Shu bilan birga ushbu maqolada, so'nggi yillarda ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi davlat tashriflari hamda rasmiy uchrashuvlari, iqtisodiy ko'rsatkichlar, raqamli transformatsiya va insonparvarlik diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlari rasmiy arxiv materiallari va me'yoriy hujjatlar asosida ikki tomonlama o'zaro manfaatli aloqalarning kengayishida muhim ahamiyat kasb etayotganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Strategik sheriklik, Turkiy Davlatlar Tashkiloti, xavfsizlik, tashqi siyosat, parlament, globallashuv, 4+4 mexanizmi, raqamli iqtisodiyot, insonparvarlik diplomatiyasi.*

Аннотация: В годы независимости установление и изучение международного стратегического сотрудничества в области изучения историко-культурного наследия и торгово-экономических отношений Узбекистана достигли нового и актуального этапа. В связи с этим в данной статье, выбранной для публикации, анализируются новые перспективы формирования и совершенствования взаимовыгодного сотрудничества между Узбекистаном и Турцией, а также укрепления отношений в последние годы.

В то же время, в статье подчеркивается важность государственных визитов высокого уровня и официальных встреч глав двух государств в последние годы, экономические показатели, специфика цифровой трансформации и гуманитарной дипломатии в расширении двусторонних взаимовыгодных отношений на основе официальных архивных материалов и нормативно-правовых документов.

Ключевые слова: Стратегическое партнерство, Организация тюркских государств, безопасность, внешняя политика, парламент, глобализация, механизм «4+4», цифровая экономика, гуманитарная дипломатия.

Abstract: During the years of independence, the establishment and study of international strategic cooperation in the study of the historical and cultural heritage and trade and economic relations of Uzbekistan has reached a new and relevant stage. For this reason, this article, which was selected, analyzes new prospects for the formation, improvement of mutual cooperation relations between Uzbekistan and Turkey and the strengthening of relations in recent years.

At the same time, this article highlights the importance of high-level state visits and official meetings of the heads of the two states in recent years, economic indicators, the specific features of digital transformation and humanitarian diplomacy in the expansion of bilateral mutually beneficial relations based on official archival materials and regulatory documents.

Keywords: Strategic partnership, Organization of Turkic States, security, foreign policy, parliament, globalization, 4+4 mechanism, digital economy, humanitarian diplomacy.

1991-yil 1-sentabr kuni O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilganidan so'ng birinchilardan bo'lib Turkiya davlatimizni tan olgan edi. O'zbekiston bilan Turkiyani mushtarak til va tarix, o'xshash madaniyat va an'analarga asoslangan yaqin do'stlik va qardoshlik munosabatlari birlashtirib turadi. Bugungi globallashuv jarayonida har ikkala davlat ham o'zaro strategik hamkorlikni rivojlantirishni mukammal darajaga olib chiqishga harakat qilinmoqda. Ikki tomonlama aloqalar dinamikasi keyinchalik strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi[1].

Turkiya Respublikasi O'zbekiston tashqi siyosati uchun alohida ahamiyatga ega davlatdir, u o'zining tashqi siyosiy maqsadlariga erishish uchun kuchli salohiyatga, har tomonlama diversifikatsiyalangan iqtisodiy faoliyatga va zamonaviy qurolli kuchlarga ega. Bu holatni quyidagi omillar yordamida tushuntirish mumkun:

- Turkiya Osiyo va Yevropa qit'alari kesishmasida joylashgan, ma'muriy va hududiy jihatdan unitar davlat tuzilishini saqlab qolgan hamda prezidentlik-parlament rejimi bilan boshqariladigan respublikadir;
- Turkiya, turli sohalarda na'muna bo'la oladigan yuqori darajada rivojlangan davlat sifatida, dunyodagi iqtisodiy jihatdan eng kuchli 20 ta davlatni o'zichiga oladigan G-20 mamlakatlaridan biridir;
- O'zbekiston Turkiyaning mintaqadagi tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi hamda keng bozor, tobora liberallashib borayotgan iqtisodiyot, qulay investitsiya muhiti, tarixiy shaharlari va diniy ziyoratgohlari Turkiyada katta qiziqish uyg'otmoqda[2].

Bu omillarning barchasi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash ikkala tomon manfaatlariga mos kelishini ko'rsatadi.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlar o'zaro ishonch va qardoshlik tamoyillari asosida yangi davrga qadam qo'ydi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki "yashil iqtisodiyot" va ekologik barqarorlik kabi global masalalarda ham mushtaraklik kasb etmoqda. Ushbu hamkorlikning institutsional asoslari yildan-yilga mustahkamlanib, mintaqaviy integratsiyaning drayveriga aylanmoqda[3].

Turkiya — O'zbekiston munosabatlari Turkiya O'zbekiston mustaqilligini tan olgan va 1992-yil 4-martda diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon izchil institutsionallashuv yo'lini bosib o'tdi. Ushbu qardosh davlatning Toshkentdagi elchixonasi o'sha yili aprelda, respublikamizning Anqaradagi elchixonasi esa 1993- yil yanvarda ish boshlagan[4].

1999-yilga qadar O'zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning Turkiya davlatiga 10 marta ziyorati tashkil qilingan[5].

1999-2014-yillar oralig'ida ikki davlat o'rtasida "sovuqlashish davri" kuzatildi. Yuqori darajadagi uchrashuvlar tashkil qilinmagan bo'lsada, ma'lum bir sohalarda shartnomalar imzolangan va hamkorliklar olib borilgan. Ikki davlat rahbarlarining xalqaro anjumanlar doirasidagi uchrashuvlari tufayli ikki davlat munosabatlarining qayta tiklanishiga asos bo'ldi. 2014 yil 7-fevral kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Sochi (Rossiya) shahrida XXII qishki Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimiga safari doirasida Turkiya Bosh vaziri Rejep Erdo'g'an bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Shuningdek, Islom Karimov va Rejep Erdo'g'an bir yilda bir marta Tashqi ishlar vazirligi darajasida hamda davlat rahbarlari darajasida uchrashuvlar o'tkazib turishga kelishib olindi[6].

Ushbu uchrashuvda ikki davlat rahbari bir fikrga kelib, munosabatlarni tiklash masalasi ko'rilgan. [7].

Jumladan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlik hamda diplomatik passport egalari uchun vizalarni bekor qilish haqida hukumatlararo bitimga kelishildi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, ikki tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi bitimlar ikki davlat uchun muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar 2016-yil oxirida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'z lavozimiga kirishishi bilan tarixiy burilish nuqtasiga yetdi. Mirziyoyevning tashqi siyosatda ochiqlik va mintaqaviy hamkorlikni birinchi o'ringa qo'yuvchi "Yangi O'zbekiston"

strategiyasi Anqara-Toshkent yo'nalishidagi diplomatik muzlarning tezda erishini ta'minladi. Haqiqatan ham, 2017-yilda Mirziyoyevning Turkiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi, 20 yillik tanaffusdan so'ng prezident darajasida qilingan birinchi tashrif bo'lganligi sababli, ikki mamlakat munosabatlarida yangi davrning ibtidosi sifatida qabul qilinadi[8].

Munosabatlardagi ushbu ijobiy dinamika 2018-yilda Turkiya Prezidenti Rajab Tayyib Erdo'g'anning O'zbekistonga tashrifi doirasida mustahkamlandi va o'zaro munosabatlar "Keng qamrovli strategik sheriklik" darajasiga ko'tarildi[9].

2020-yilda tashkil etilgan Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashi (ODSHK) siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni institutsionallashtirishda inkor etib bo'lmaydigan rol o'ynadi. Iqtisodiy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratsak, 2016-yilda 1.2 milliard dollar darajasida bo'lgan o'zaro savdo aylanmasi qo'yilgan qadamlar va rag'batlantirishlar natijasida 2020-yillar o'rtalariga kelib 3.5 milliard dollardan oshdi va 5 milliard dollarlik maqsad sari barqaror o'sishni namoyon etdi.[10]

Turkiya bilan o'rnatilgan hamkorlik qurilish, to'qimachilik va energetika kompaniyalarining O'zbekistonga kiritgan to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalari ushbu davrda rekord darajaga yetdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar faqatgina ikki tomonlama darajada cheklanib qolmay, balki ko'p tomonlama mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ham ko'chdi. O'zbekistonning 2019-yilda Turkiy Kengashga (hozirgi nomi bilan Turkiy Davlatlar Tashkiloti - TDT) to'la qonli a'zo bo'lishi Turkiy dunyodagi geosiyosiy muvozanatni kuchaytirdi. 2022-yilda Samarqandda bo'lib o'tgan Turkiy Davlatlar Tashkiloti Sammiti va 2026-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan qo'shma harbiy, logistika (O'rta yo'lak) va madaniy qadamlar Toshkent va Anqaraning Yevroosiyo makonidagi umumiy yondashuvini yaqqol ko'rsatib turibdi[11].

2026-yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Anqaraga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yangi cho‘qqiga olib chiqdi[12].

Tashrif doirasida o‘tkazilgan "Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashi" ning to‘rtinchi majlisi yakunlari bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan "4+4 mexizm" xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Ushbu mexanizmda tashqi ishlar, mudofaa vazirlari, ichki ishlar va razvetka rahbarlari o’rtasida o’tkazildi[13].

Bundan tashqari, ko‘p qirrali sheriklikning turli yo‘nalishlarini qamrab oluvchi ikki tomonlama hujjatlar to‘plami imzolandi. Xususan:

— sog‘liqni saqlash, ta’lim va harbiy tibbiyot sohalaridagi hamkorlik to‘g‘risida;

— iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik to‘g‘risida;

— konchilik sanoatida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida;

— xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida;

— maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— yadro xavfsizligi, jisman himoya qilish, kafolatlar va radiatsion himoya sohasidagi hamkorlik va axborot almashinuvi to‘g‘risida;

— migratsiyaga ko‘maklashish va fuqarolarni o‘z mamlakatiga qaytarish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi va Turkiya Din ishlari boshqarmasi o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimlar;

— Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi;

— O‘zbekiston Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi va Turkiya Oliy ta’lim kengashi o‘rtasida bayonnoma;

— Madaniyat sohasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik rejasi imzolandi[14].

Ushbu mexanizm davlatimizning har tomonlama rivojlanishi hamda mintaqaviy tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishning samarali vositasiga aylandi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi strategik sheriklikning eng muhim yo'nalishlaridan biri raqamli transformatsiya va elektron hukumat (e-hukumat) tizimlarini rivojlantirishdir. 2022-yilda O'zbekiston va Turkiya o'rtasida bo'lib o'tgan Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashi doirasida elektron hukumat sohasida o'zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi[15].

Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Raqamli O'zgarishlar Ofisi (Dijital Dönüşüm Ofisi) va O'zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi o'rtasida yo'lga qo'yilgan tajriba almashinuvi bu jarayonning asosini tashkil etadi. Ikki davlat o'rtasida e-hukumat platformalarini (Turkiyaning "e-Devlet Kapısı" va O'zbekistonning "my.gov.uz" tizimlari) o'zaro muvofiqlashtirish va raqamli bojxona tizimlarini joriy etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda[16].

Shuningdek, raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va kiberxavfsizlik sohasida tajriba almashinuvini kengaytirish maqsadida qo'shma "Texnik Ishchi Guruh" tashkil etilgan[17].

Ushbu hamkorlik nafaqat davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirishga, balki ikki mamlakat fuqarolari va tadbirkorlari uchun raqamli xizmatlardan foydalanishni qulaylashtirishga ham xizmat qilmoqda. Bundan tashqari ikki davlat o'rtasida parlamentlararo hamkorlikning o'rnatilishi ham o'zaro hamkorlikning mustahkamlanayotganligini anglatadi. Jumladan, Turkiya Buyuk Millat Majlisi Spikeri Numan Kurtulmush va O'zbekiston Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbayeva o'rtasida hamkorlik protokolini tayyorlash bo'yicha kelishib olindi[18]. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy xodimlari davlat xodimlarini tayyorlash va rivojlantirish bo'yicha hamkorlik protokoli doirasida Konya Shahar hokimiyatiga tashrif buyurishdi va Konya shahar xizmatlari modeli haqida ma'lumot olishdi. Konya gubernatori o'rinbosari Mehmet Adin va Konya Shahar hokimiyati bosh kotibi Erjan Uslu hamrohligida delegatsiya taqdimotlar va kuzatuvlar orqali "Konya Modeli" haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lishdi. O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi rahbari Qurbonov Ilhom Jumakulovich, Turkiya tajribasidan foydalanib, mahalliy hokimiyat organlarida munitsipial boshqaruv konsepsiyasini takomillashtirilishi haqida aytib o'tdi[19].

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. Turkiyaning O'zbekistondagi yangi elchisi Ufuq Ulutash tomonidan ta'kidlanganidek, o'zaro Tovar ayirboshlash hajmini qisqa muddatda 5 milliard dollarga yetkazish ustuvor vazifa hisoblanadi[20].

Mazkur jarayonda tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va biznes muhitini takomillashtirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda[21].

Raqamlashtirish sohasida PF-6268-sonli "Davlat xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan belgilangan vazifalar doirasida davlat xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasi Turkiya tajribasi asosida modernizatsiya qilinmoqda[22].

Ayniqsa, "O'rta koridor" logistika yo'lagi doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, yuk tashish vaqtini va xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi[23].

2024-yil noyabr oyida Bishkekda o'tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) sammiti va unda qabul qilingan "Turkiy dunyo xartiyasi" ikki davlatning ko'p tomonlama diplomatiya doirasidagi faolligini oshirdi[24].

Insonparvarlik sohasida esa Turkiyaning Hatay viloyatida O'zbekiston tomonidan barpo etilgan turar joy majmuasi hamda Istanbulda ochilgan ilk o'zbek maktabi "xalq diplomatiyasi" ning amaliy ifodasidir.

Xulosa

Bugungi kunda Turkiya barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishayotgani va nafaqat musulmon dunyosida, balki global miqyosda ham haqli ravishda yuksak hurmat-e'tibor qozongani alohida ta'kidlanmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi oily darajadagi muloqotning faolligiga qaramay, amaliy otda ayrim byurokratik va logistik to'siqlar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun "Raqamli bojxona" tizimini to'liq joriy etish va elektron ruxsatnomalar (e-Permit) almashinuvini yo'lga qo'yish hamda "Konya modeli" asosida mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni kengaytirish yanada ijobiy natijalarni beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlon Shukurzoda "QARDOSh VA QONDOShLAR HAMKORLIGINING KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK UFQLARI", Toshkent «NI SO POLIGRAF» 2023, 3-4 bet.
2. Bahram S.; 2018-yil 25-aprel, https://www.ankasam.org

3. "Xalq so‘zi" gazetasi, 2025-yil 8-aprel, № 71 (8966). "2025-yil - Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"
4. O’zA; 2025-yil 4-mart, https://uza.uz
5. /haber/ozbekistanla-inisli-cikisli-iliskileri (erişimtarihi: 11.03.2023) axborot agentligi xabari https://www.aljazeera.com.tr
6. Imamov B.X. “O‘zbekiston va Turkiya davlatlari o‘rtasida siyosiy diplomatik aloqalarning rivojlanishi” ilmiy maqola. https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.10791440
7. TÜRK DIŞ POLITIKASI YILLIĞI 2022, BURHANETTİN DURAN, KEMAL İNAT, MUSTAFA CANER © 2023 SET Vakfı İktisadi İşletmesi 1. Baskı: Mayıs 2023, İstanbul
8. Avatkov V., & Qosimov M. (2018). *Yangi Davrda Turkiya-O'zbekiston Munosabatlari: Imkoniyatlar va Xatarlar*. Xalqaro Munosabatlar Jurnali (Uluslararası İlişkiler Dergisi), 15(59), 115-130.
9. Turkiya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2020). *Turkiya - O'zbekiston Siyosiy Munosabatlari*. Anqara: Tashqi ishlar vazirligi rasmiy nashrlari. www.mfa.gov.tr
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2025). *O'zbekistonning Tashqi Savdo Aylanmasi Hisoboti (2016-2025)*. Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi: https://stat.uz
11. Hasanov A. (2023). *Turkiy Davlatlar Tashkiloti Doirasida O'zbekiston-Turkiya Ko'p Tomonlama Diplomatiyasi*. Yevroosiyo Strategik Tadqiqotlar Markazi (ASAM) Nashrlari, 45-48 b.
12. "Xalq so‘zi" gazetasi, 2026-yil 30-yanvar, № 20 (9137). "Hamkorlikni rivojlantirishning yuksak dinamikasi va barcha darajadagi faol muloqot".
13. ANKASAM va TASAM tahliliy ma’ruzalari: "Turkiya-O‘zbekiston strategik muloqoti: Xavfsizlik arxitekturasi", 2025-2026; https://www.ankasam.org , https://tasam.org
14. Yangi O’zbekiston gazetasi № 20 (1619), 2026-yil 30-yanvar
15. O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi hukumatlari o'rtasida elektron hukumat sohasida hamkorlik to'g'risida Anglashuv Memorandumi (2022 yil mart, Toshkent). https://president.uz
16. Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Raqamli O'zgarishlar Ofisi (CBDDO). (2023). *Turkiy Davlatlar Bilan Raqamli Hamkorlik Hisoboti*. Anqara: CBDDO Nashrlari, 24-27 b https://turkicstates.org/
17. O'zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi. (2024). *Raqamli O'zbekiston - 2030 Strategiyasi Doirasida Xalqaro Hamkorlik*. Toshkent, https://gov.uz
18. Turkiya, “Sabah” gazetasi 22 Mayıs 2024 https://www.sabah.com.tr
19. Turkiya, “Sabah” gazetasi 23.12.2021https://www.sabah.com.tr
20. "Xalq so‘zi" gazetasi, 2025-yil 7-mart, № 47 (8942).
21. "Xalq so‘zi" gazetasi, 2024-yil 5-noyabr, № 226 (8849). "Biznesning huquqiy himoyasi yanada kuchayadi"
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF-6268-sonli "Davlat xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni.
23. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi logistik integratsiya hisobotlari qarori https://lex.uz/ru/docs/-5030957
24. "Xalq so‘zi" gazetasi, 2024-yil 7-noyabr, № 228 (8851). "Bishkek sammiti: Strategik sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar".